

ASHTARXONIYLAR DAVRIDA TA'LIM TARBIYA TIZIMI.

Narzullayeva Zulayxo

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11445018>

Annotatsiya. Ashtarxoniylar ta'lim tizimida ta'lim standartlarini takomillashtirish va talabalarning yaxlit rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida muhim islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu maqolada Ashtarxoniylar davridagi ta'lim tizimining asosiy jihatlari muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: Madrasalar, fors tili darsligi, matematika, geometriya, tibbiyot, estetika, menejment va huquq va maxsus kasalxonalar.

SYSTEM OF EDUCATION IN THE AGE OF ASHTARKHANIDS.

Abstract. The Ashtarkhanids implemented important reforms in the educational system in order to improve educational standards and support the holistic development of students. This article discussed the main aspects of the education system during the Ashtarkhanids.

Keywords: Madrasas, Persian language textbook, mathematics, geometry, medicine, aesthetics, management and law, and special hospitals.

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В ЭПОХУ АШТАРХАНИДОВ.

Аннотация. Аштарханиды осуществили важные реформы в системе образования, чтобы улучшить образовательные стандарты и поддержать целостное развитие студентов. В данной статье рассмотрены основные аспекты системы образования во времена Аштарханидов.

Ключевые слова: медресе, учебник персидского языка, математика, геометрия, медицина, эстетика, менеджмент и право, специальные больницы.

Kirish: XVII-XVIII asrlarda Ashtarxoniylar davrida yashab ijod etgan shoirlar, yozuvchilar to'g'risida anchagina ishlar bajarilganligining guvohi bo'lish mumkin. I.Bekjanovning "Muzakkiri ahhob" tazkirasida va "XVII asr o'zbek adabiyoti"¹. A.L.Xalilovning "Nusratnoma" asari tilining morfologik qurilishi (grammatik kategoriyalar) nomli nomzodlik ishi, M.X.Abdullaevning "Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati" nomli nomzodlik ishining birinchi bobida aynan XVII asrning birinchi yarmida ijtimoiy- siyosiy madaniy hayot hamda Ubaydiy taxallusi bilan ijod qilgan, XVII asr Ashtarxoniylar davri ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ubaydullaxonning hayoti va faoliyatiga doir qiziqarli ma'lumotlar o'rin olgan². N.A.Allaeva

¹ Bekjanov I. "Muzakkiri ahhob" tazkirasida va XVI asr O'zbek adabiyoti. dis. filologiya fan. nomzodi : T.: 1993 – 177 b.

² Abdullaev M.X. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. diss. filologiya. fan.nom.T.:2000-139

“XVI-XIX 70-yillarida Xiva xonligi tashqi aloqalari tarixi”³, masalalarini tadqiq etib Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklarining o‘zaro diplomatik munosabatlarini kompleks tarzda o‘rganib, Buxoro va Xiva xonliklarining siyosiy va iqtisodiy hayotiga oid ikki xonlik munosabatlarining o‘ziga xos tomonlari, jumladan, xorijiy davlatlar bilan faol elchilik almashinuvlari xususida so‘z yuritilgan. A.A.Erko‘zievning “Ashtarxoniylar davri va G‘arbiy Yevropa o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar”⁴ masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida XVI-XIX asrlarni o‘z ichiga olgan savdo aloqalari, tovar ayirboshlash, ulardan olingan soliqlar tartibiga doir qimmatli ma’lumotlar o‘rin olgan bo‘lib, XVII-XVIII asrlarda Ashtarxoniylar davrining savdo sohasidagi diplomatik, siyosiy, iqtisodiy aloqalari bilan bevosita uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Xuddi shunday bu davr tarixshunosligi masalalari ustida yana bir qator Muxammad Shayboniyxon to‘la-to‘kis parchalanib ketgan temuriylar imperiyasini qayta tiklab, uni yagona markazlashgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlangan ulkan mamlakatga aylantira oldi. Shu tariqa temuriylardan keyin Movarounnahrning madaniy markazlari hisoblanmish Samarqand va Buxoro shayboniylar sulolasi vakillari sa’y-harakatlari natijasida qayta ilm-fan markazlariga aylandi.

Qator tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Shayboniy hukmdorlarning deyarli barchasi, ilm va ma’rifat kishilari bo‘lishganligi boiz, bir vaqtning o‘zida ular ilm-fan taraqqiyoti tarfdorlari hamda homiylari ham hisoblanishgan. Ular temuriylar yaratib ketgan boy ilmiy meros va madaniy hayot an‘analarini yuqotmagan, aksincha temuriylardan ilhomlanib o‘zlarini shu madaniyat davomchilari va vorislari sifatida bilishgan.

O‘zbek davlatchiligidagi bu muhim o‘zgarishlar, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy hayotning o‘zgarishiga olib keldi. Muxammad Shayboniyxon mamlakat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotini o‘zgartirishga bir qator harakatini amalga oshirdi. Jumladan, ilg‘or fan namoyandalari ta’lim-tarbiyani rivojlantirishga hissa qo‘sha oladigan hamda madaniy taraqqiyotini rivojlantira oladigan, kishilarni o‘z atrofida to‘pladi. Muxammad Shayboniyxon Movarounnaxr madrasalarida ta’lim-tarbiya olgan, temuriylar bilan ko‘p yillar yaqin aloqada bo‘lgan, olim va adiblar bilan muloqotda bo‘lgan, madaniyat tarixidan yaxshi xabardor kishi sifatida ijod axliga rahnamolik qilgan va o‘zi ham mahoratli shoir va olim sifatida tarixda nom qoldirgan davlat boshlig‘i hisoblanadi. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr markazlaridagi ma’rifatli kishilari bilan yaqin aloqalari uni ham o‘z davrining zabardast ilmi

³ Allaeva N.A. XVI-XIX 70-yillarida Xiva xonligi tashqi aloqalari tarixi dis. tarix fan. dok (DSc) : T.: 2019 – 278 b

⁴ G‘oziev S. Moziyga nazar XVI asr mutafakkirlarining ijtimoiy – siyosiy va axloqiy qarashlari II kitob monografiya J.:Sangzor nashriyoti 2014.170-b.

kishisiga aylantiradi. Ayniqsa, Buxoroda yashagan yillari uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bu yerda Qur'onni yaxshi o'quvchi qorilardan biri Mavlono Muhammad Xitoyi unga ta'lim-tarbiya bergan. Shuningdek, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotini yaqindan o'rgangan mashhur tarixchi olimlardan X.Vamberi yozganidek, u har holda o'zining Eroniy dushmanlari tomonidan ta'sir etilganidek, nimani xohlasa shuni bajarib yuruvchi vahshiy bir kimsa emas edi. Masalan, u zamonning ruhoniylar ulamolariga katta hurmat, hatto bolalarcha itoat qilib, barcha urush safarlarida o'zi bilan kichkina kutubxonasini olib yurar, Temur kabi u ham doimiy munozaralarga qatnashgan.

Qur'onning ba'zi oyatlari haqida Hirotning nimqadam tavsiflovchilari bo'lgan qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufga e'tiroz ham bildirgan edi. Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Shayboniyxon tarixiy asarlar yaratilishida o'zi ishtirok etgan. Shayboniyxon o'zbek («turk») tilida bitilgan o'ziga xos manba «Tavorixi guzidayi nusratnoma» asarining yozilishida bevosita ishtirok etgan.

Shayboniylar tomonidan ilm-fan ma'rifat, madaniyat ma'naviy-siyosiy faoliyatga doir ishlar davrning keyingi yillari Ko'chkinchixon, Ubaydulloxon, Abdulloxon II lar tomonidan sezilarli darajada rivojlantirilgan bo'lsa, XVII-XVIII asr Ashtarxoniylar davridagi madaniy hayot hamda ilm-fanning keyingi rivoji Ashtarxoniylar sulola vakillaridan bo'lgan Imomqulixon, (1611-1642) Abdulazizxon, (1645-1680) Subhonqulixonlar (1680-1702) tomonidan davom ettirildi. Shayboniy hukmdorlar tomonidan ta'limga doir bir necha marotaba islohotlar o'tqaziladi. Bunga sabab ushbu hukmdorlar o'sha davrdagi ko'plab sohalarida xususan, harbiy soha, qishloq xo'jaligi, davlat boshqaruvi, tibbiyot, soliq tizimi, savdo, arxitektura hamda elchilik (tashqi aloqalar) kabi qator sohalarida davlat xizmatchilarining yetishmasligi, shuningdek, ushbu muammolarni hal etish hamda mamlakatni taraqqiy ettirishda aynan ta'lim sohasini isloh qilish bilan erishish mumkinligini anglashgan. Buning uchun butun mamlakat bo'ylab keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, mamlakat va fuqarolar turmushini yaxshilash uchun bir qancha iqtisodiy islohotlar ham o'tqazilgan. Chunonchi, XVII asrning dastlabki o'n yilliklaridan shaharning izdan chiqqan xo'jalik hayoti sekin-astalik bilan tiklana boshlandi. O'lkaga tashrif buyurgan Xurosonlik shoir va adabiyotshunos hamda axloqshunos olim Zayniddin Mahmud Vosifiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Shayboniylar zamonida Buxoro, Samarqand va Toshkent serhosil voha hisoblanib, hunarmandchilik sovd o'z madaniyat yuksalgan⁵.

Abdullaxon II zamonida ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi, madaniy hayot ancha yuksaldi. Juda ko'p sug'orish inshootlari (Zarafshon suv ayirgich ko'prigi, Tuyatortar

⁵ Ahmedov Bo'riboy. Tarixdan saboqlar T.: O'qituvchi nashr. 1994.-B.407

kanali, o'ziga xos O'qchopsoy suv ombori, Vaxshdan chiqarilgan ko'plab ariqlarning qurilishi) ziroatchilikni bir muncha rivojlantirdi. Bu davrda Ashtarxoniylar davrida bug'doyning o'n navi, suli, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, paxta, kunjut, beda, arpa, sabzavot va poliz ekinlari; bug'doychilik, polizchilik va ipakchilik rivojlangan. Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Marg'ilon, Andijon, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Shahrisabz va boshqa shaharlarda hunarmandchilik rivojlandi. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, XVI asrda Samarqandda hunarning 61 turi mavjud bo'lgan. Movarounnahrlik kosiblar turli metall buyumlar, ip va ipak matolari, a'lo navli qog'ozlar ishlab chiqarganlar⁶. XVII asr Ashtarxoniylar davri hunarmandlari, ularning turmush tarzi va ko'pgina bizga noma'lum bo'lgan, hunar turlari xususida qiziqarli ma'lumotlarni nazmiy usulda bayon qilgan, o'z davrining mashhur shoiri Sayido Nasafiyning «Shahrosho'b» (shahar hunarmandlari xususida manzuma XVII asr hamda XVIII asrning boshlarida murakkab va qarama-qarshiliklarga boy talashishlar fedalizmning inqirozi feodal hukmronlarning ma'naviy qashshoqlashishi oddiy mehnatkash xalqning zulmga nisbattan noroziliklarining kuchayishiga qaramasdan xalqning ilg'or ilm-fan kishilari tomonidan ijodiy fikrlarni bayon etish, yaratuvchilik faoliyatlarini erkin namuna sifatida ko'rsatish va ta'lim tarbiyaga oid qarashlarini bayon etish aslo pasaymadi, aksincha rivojlanib bordi.

Buxoroda islom madaniyati ravnaq topishining boisi islom ta'limotining o'zi bo'lsa, ikkinchi tomonda islom ta'limotidagi din aqidalari va bilim, ilm-fan shunchalik chambarchas bog'langan ediki, bunday holatni hech qachon va hech qaysi diniy ta'limotda uchratmaymiz. Islomshunos, arabshunos olim amerikalik F. Rozental o'zining "Bilim tantanasi" risolasida o'rta asrda "ilm" so'zining ma'nosi va mohiyati haqida shunday yozgan: ilm islomda ustunlik qiluvchi konsepsiyalarning biridir. Bu holat islom sivilizatsiyasini ham shakl, ham mazmun jihatidan boshqalardan ajratib turadi. Haqiqatdan, musulmon sivilizatsiyasining turli sohalarini "ilm" aniqlab beradi. Uchinchi tomonda islom ta'limoti namoyondalari dunyoviy ilm orqali ham insonni kamolotga yetkazish mumkin, halol mehnat, diniy va dunyoviy ilmlar Olloh vasliga yetishi omili deb ta'lim va tarbiyani o'sha davrdanoq chambarchas yaxlit holda yetkazishga bel bog'lashgan. Haqiqatdan ham islomdagidek bilim olish boshqa dindorlardan astoydil talab qilinmagan. Garchi "ilm" deganda dunyoviy emas, balki Qur'on va hadislar tushunilsa-da, bunga rasmiy talqin berilsa-da, "ilm" keng ma'noda tushunuvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ilm-amal orqali insoniyat yukini yengillatishga harakat qilganlar ko'pchilik bo'lgan. Qur'onda "ilm" kalimasining 750 martadan ortiq kelishi, islom hadislarida "Har bir muslim va muslima tug'ilishidan to boshi go'rga

⁶ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: Universitet, 2007, 339 - b

kirguncha bilim olishga intilishi kerak” yoki “Garchi Chinda (Xitoyda) bo’lsa ham ilm izla” deb islomga e’tiqod qo’ygan bandalariga qat’iy ko’rsatma berilgan. Bu ko’rsatmalarga amal qilingan. Ilm olishga undash o’z samaralarini bergan.

Shu bois manbalarda ta’kidlanishicha, Buxorodagi Ulug‘bek madrasasining darvozasining peshtoqida “Talabul ilmi farizatun alo kulli muslimin va muslimotin”, ya’ni “Ilm olishga intilmoq har bir muslim va muslima uchun farzdir”, darvozaning temir halqasiga hukmdor Mirzo Ulug‘bek ruhiga xos: “Ilm durdonalaridan bahramand bo’lgan odamlarga Olloh taolo rahmat eshigini ochgay” degan so‘zlar yozib qo’yilgani keyingi davr ma’rifatparvarlari diqqat markazida bo’lib yosh avlodni bilim olishga mudom da’vat etgan.

Shu sabab XVII asrning boshlarida Buxoroda xususiy maktablar tashkil etilib unda muallimlarni yollab uyda o’qitish ishlari amalga oshirilgan. Dastlabki ma’lumotni egallandan so‘ng o’quvchilar keyingi o’qishni madrasada davom ettirib, diniy hamda dunyoviy fanlarni o’zlashtirganlar⁷.

Ushbu ilm dargohlarida Nisoriy, Mutribiy, Muhammad Solih, Zayniddin Vosifiy, Kamoliddin Binoiy, Abdurahmon Mushfiqiy, Poshshoxo‘ja kabi shoir va muarrixlar hamda mutafakkir olimlar yirik adabiy va tarixiy asarlar yaratish bilan birga, aholi savodxonligini oshirish, bolalarga ta’lim-tarbiya berish borasida shaxs ta’lim-tarbiyasiga doir g’oya hamda fikrlarni ilgari surdilar.

⁷ Abduasattor Jumanazar, Buxoro ta’lim tizimi tarixi. T.: Akademnashr, 2017.